

XALQ DOSTONLARI TADQIQOTIDA VERSIYA VA VARIANT TUSHUNCHALARI TAHLILI

Shomuratova Intizor Bekchan qizi,

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Urganch, O'zbekiston

E-mail: intizor.sh@urdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodi namunalarining eng katta va keng tarqalgan turi hisoblangan doston janrida uchraydigan variant va versiya tushunchalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, epos, doston, baxshi, og'zaki, yozma, versiya, variant

Xalq og'zaki ijodi rang-barang va jozibardor bo'lib, o'z ichiga qo'shiqlar, maqollar, topishmoqlar, ertaklar, afsona, rivoyatlar, latifa, loflar hamda dostonlarni o'z ichiga oladi. Folklorning yirik va eng ommabop janrlaridan biri bo'lgan dostonlar, avlodlar tafakkuri va madaniyatining yorqin aksidir. Dostonlar xalqning tarixiy xotirasi va taraqqiyotini, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni, urf-odatlarini, va orzu-umidlarini o'ziga jo etgan bo'lib, ularning avlodlaridan avlodga og'zaki shaklda o'tib kelganligi turli versiya va variantlarning shakllanishiga olib kelgan. Ushbu maqola dostonlardagi versiya va variant tushunchalarining mohiyati, farqlari va ularning shakllanish sabablari haqida ilmiy tahlil beradi.

Variant va versiya atamalarining aniq izohini bilish maqsadida biz bir nechta manbaga murojaat qildik. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli lug'atida bu atamalarga quyidagi izoh keltirilgan:

Versiya (lotincha "versio" – shakl, ko'rinish) – xalq og'zaki ijodida bir xil syujet asosida yaratilgan, lekin kompozitsiya va g'oyaviy-badiiy xususiyatlari jihatdan farqlanuvchi doston nusxalari. Masalan, "Alpomish" asarining qoraqalpoq, qozoq, oltoy versiyalari doston shaklida mavjud bo'lib, tatar va boshqird versiyalari ertak va rivoyat shaklida bizgacha yetib kelgan [2, 54]. Versiya – bu dostonning biror tarixiy yoki madaniy kontekstdan kelib chiqqan holda, o'zgarib, yangilanishi, shu jumladan, syujet hamda qahramonlarning yangi qirralarini ochishidir. Versiya, asosan, dostonning yirik shakli yoki asosiy ijtimoiy va madaniy tomonlarini o'zida aks ettirgan holda, turli jamiyatlar, xalqlar yoki geografik hududlar tomonidan o'zgarishi natijasida yuzaga keladi. Masalan, "Alpomish" dostonining O'zbekistondagi, Qozog'istondagi va Qirg'izistondagi versiyalari bir-biridan farq qiladi, lekin ular baribir bir xil asosiy voqea va qahramonlarni o'zida mujassam etadi. Doston o'zbek xalq og'zaki ijodida "Alpomish", qoraqalpoqlarda esa "Alpamis", qozoq xalqi tomonidan "Alpamis batir", oltoyliklarda "Alip-Manash", "Alpamsha" asosan qozon-tatarlari, boshqirdlarda "Alpamsha va Barsin huluu" deb ataladi.

Variant – muallif va yozib oluvchilarning asar matni ustida ishlashlari natijasida hosil bo'lgan nusxalari. Bunda asarning turli qismlari, bo'lim va boblari, band, misra yoki ulardagi so'zlar turli-tuman ko'rinishda ifodalanishi mumkin. Masalan, Yusuf Xos Hojib qalamiga mansub “Qutadug‘u bilig” asarining uchta nusxasi mavjud bo'lib, ular “Vena-Hirot” (XIX asrning 20-yillari), “Qohira”(1896-yil), va “Namangan” (1913-yil) nusxalari deb nomlanadi. Ushbu nusxalarning qiyosiy tadqiqidan ma'lumki, “Qohira” varianti “Vena-Hirot” nusxasidan birmuncha farq qiladi. Matndagi juz'iy xatoliklardan tashqari, “Qohira” variantida “Vena-Hirot” nusxasidagi ayrim joylar tushurib qoldirilgan. “Qutadug‘u bilig” asarining “Namangan” nusxasi boshqalariga qaraganda ancha mukkamal hisoblanganligi sababali, ilmiy doiralarda ko'pincha ushbu variantda murojaat qilishadi [2, 54]. Variant tushunchasi asosan, biror dostonning o'zaro tafsilotlaridagi farqlar, masalan, voqealar ketma-ketligi, qahramonlarning rolidagi o'zgarishlar, til va uslubdagi o'ziga xosliklarni ifodalaydi. Variantlar dostonning o'zgaruvchan va jonli xususiyatini aks ettiradi, chunki dostonlar og'zaki ijod maxsuli va ijrochining mahorati, shaxsiy tajribasi, dunyoqarashi, yoki doston mansub bo'lgan jamiyatdagi o'zgarishlar ularning mazmuni va shakliga ta'sir ko'rsatadi.

Xalq og'zaki ijodiga doir manbalarda versiya tushunchasini asosan, tugal, yakka muallifga mansub hamda an'anaviy tarzda shakllangan va mukammal kompozitsiyaga ega dostonlarga nisbatan qo'llaniladi. Variantlar esa bir xil mavzu doirasida, lekin turli hudud, ijrochi(baxshi) yoki zamonda aytilgan shakllar sanalib, ular har bir aytuvchining badiiy yondashuvi, dunyoqarashlari, estetik o'ziga xosligi, ijro mahorati bilan farqlanadi. Xalq og'zaki ijodining jonli va doimo harakatda bo'lgan xususiyati aynan variantlar orqali namoyon bo'ladi. Versiya va variant tushunchalari orasidagi farqni aniq belgilash zarurdir. Versiya – bu dostonning umumiy tuzilishidagi, voqealar mazmunidagi va qahramonlar ro'yxatidagi muhim o'zgarishlarni namoyon qiladi. Masalan, “Alpomish” dostonining bir versiyasida qahramonning muvaffaqiyatli jangovor faoliyati yoritilsa, boshqa versiyada uning shaxsiy kurashi, ichki ruhiy holati va ijtimoiy o'rni ta'kidlanishi mumkin.

Variantlar esa, ko'pincha, ma'lum bir hududga xos bo'lib, dostonning ayrim qismlari va tafsilotlaridagi farqlarga asoslanadi. Misol uchun, biror dostonning turli xil ijrochilar(baxshilar) tomonidan kuylanishi, har birining o'ziga xos vokal ijorsi, tili va uning janriga ta'sir qilishi mumkin. Variantlar, shuningdek, dostonlarning ko'plab detal va qismlarini o'zgartirgan holda yangi shakl olishiga olib kelishi mumkin.

Versiya va variant tushunchalari dostonshunoslikda muhim ahamiyat kasb etadi. Versiyalar adabiy asar sifatida o'zining strukturaviy yaxlitligi, obrazlar majmuyi, va mualliflik iziga ega bo'lsa, variantlar xalq og'zaki ijodining har xil talqinlarida yashab kelayotgan shakllaridir. Shu bois dostonlarni ilmiy tadqiq qilishda, ularning to'g'ri tasnifi uchun ushbu tushunchalar haqida aniq tushunchaga ega bo'lish zarur. Dostonlarning versiya va variantlarining

shakllanishi bir nechta ijtimoiy, siyosiy va madaniy omillar bilan bog'liqdir. Xalqning o'zgaruvchan ehtiyojlari, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va tarixiy voqealar dostonlarning shakllanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. O'rta asrlar va yangi davrda yuzaga kelgan ijtimoiy o'zgarishlar, masalan, davlatlararo urushlar, diniy yoki siyosiy islohotlar, xalqni ruhiy jihatdan birlashtiruvchi yoki ajratib qo'yuvchi omillar dostonlarning mazmuniga katta ta'sir ko'rsatgan.

Shuningdek, dostonlarning og'zaki shaklda avloddan-avlodga o'tishi, ular orasida bir qator o'zgarishlar va yangi versiyalarning yuzaga kelishiga olib keladi. Xalq og'zaki ijodi, o'zining o'zgarishlar strukturasi bilan birga, ijrochilarning shaxsiy talqini va uning yashayotgan jamiyatdagi ehtiyojlarni aks ettiradi. Shu tariqa, xalq dostonlari hayotiy jarayonlarning hamda tarixiy sharoitlarning aksidir. Masalan, "Alpomish" dostoni 2 versiya va bir nechta 40 dan ortiq variantda bizgacha yetib kelgan bo'lib, uning o'zbek, qoraqalpoq, qozoq versiyalari doston holida, tojik, oltoy, tatar, boshqird, O'rta Osiyo arablari versiyalari ertak va rivoyatlar tarzida mashhurdir.

"Alpomish" dostonining versiya va variantlari

"Alpomish" dostoni turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan bo'lib, uning bir necha yirik versiyalari mavjud:

O'zbek versiyasi – dostonning eng to'liq va badiiy jihatdan mukammal shakli o'zbek xalq og'zaki ijodida saqlanib qolgan, qoraqalpoqlar orasida ham "Alpomish" dostonining mustaqil shakli mavjud. Qozog'iston (qozoq) versiyasi - qozoq xalqida ham doston o'ziga xos syujet va badiiy ifoda bilan mavjud. Oltoy versiyasi esa oltoy turkiylarida "Alip-Manash" nomi bilan, o'ziga xos epik uslub va shamanistik unsurlar bilan ajralib turadi. Tatar va boshqird versiyalarida doston ko'proq ertak va rivoyat shaklida saqlangan.

Variantlari: "Alpomish" dostonining har bir versiyasi o'z ichida ko'plab variantlarga ega. O'zbek xalq baxshilari tomonidan aytilgan va yozib olingan variantlar soni 40 ga yaqin bo'lgan, hozirda esa uch asosiy variant saqlanib qolgan. Eng mashhur variantlar quyidagilar:

Fozil Yo'ldosh o'g'li varianti - badiiy va syujet jihatdan eng mukammal variant hisoblanadi.

Abdunazar Poyonov varianti - Surxondaryo vohasiga xos, o'ziga xos syujet va obrazlarga ega.

Saidmurod Panoh o'g'li, Berdi baxshi, Bekmurod Jo'raboy o'g'li, Ergash Jumanbulbul o'g'li va boshqa baxshilar aytgan variantlar ham nashr etilgan va o'rganilgan.

Har bir variantda syujetning asosiy chizig'i saqlangan bo'lsa-da, ayrim motivlar, epizodlar va obrazlar talqini farqlanadi. Bu esa dostonning turli hududlar va ijrochilar ijodida boyib, xalq ruhiyatini aks ettirishini ta'minlaydi.

Xalq og'zaki ijodi namunalari hisoblangan dostonlarning versiyalar va variantlari xalq dostonchiligining boyligi va rang-barangligidan dalolat beradi. Ularni tadqiq qilish va ilmiy asosda farqlay bilish dostonlarni o'rganishda muayyan yondashuvni ta'minlaydi. Har ikki tushuncha dostonlarning tarixiy

ildizlari, taraqqiyoti va o'zgarishlarini o'rganishda muhim metodologik vosita hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони // Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М.Зарипов. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 1998.
2. F.Salayev, G.Qurboniyozov. “Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so‘zligi”. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2010.
3. Stephens M. Living Folklore. – Logan, Utah University Press, 2005.
4. Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Т.: “Ўқитувчи” нашриёти, 1990.
5. Xolmuminov I. “Alpomish” dostonini ingliz tiliga tarjima qilish muammolari”: Filol.fan.nomz. ... –T.2023.